

INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA MAQOLLARNING
QO‘LLANILISH TARIXI

Mamatkulova Nigora Bahodir qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti

1-bosqich magistranti. Ilmiy rahbar:

Ochilova Noila Farmonovna

E-mail: nigora.mamatkulova.20@list.ru

ANNOTATSIYA

Badiiy ijodiyotning o‘ziga xos go‘zal namunasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklor janrining ixcham tuzilish, ammo teran ma’no-mazmunga ega bo‘lgan bir shaklidir. “Maqol” so‘zi ikki ma’noda, avvalo, o‘z lug‘aviy ma’nosida – “so‘z, nutq”ni anglatadi, ikkinchidan, istilohiy ma’noda – folklorda keng tarqalgan janrni ifoda etadi. Ushbu maqolada maqol atamasi tarixi va uning kelib chiqishi, ayrim maqollarning mazmun-mohiyati, ingliz adabiyotida va o‘zbek tilidagi asarlarda maqollarning ishlatilishi haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so‘zlar: maqol, naql, masal, qavvola, umumfolklor hodisasi, folklor, epik poema, masalnavis.

THE HISTORY OF THE USAGE OF PROVERBS IN
ENGLISH AND UZBEK LITERATURE

Mamatkulova Nigora Bahodir qizi

1st year student in Masters degree

Samarkand State Institute of Foreign Languages.

Scientific supervisor: Ochilova Noila Farmonovna

e-mail: nigora.mamatkulova.20@list.ru

ABSTRACT

Proverb which occurred as a specific and beautiful model of the artistic creativity is one of the folklore genres that have a small form, but deep meaning. The term “proverb” has two meaning, the first one is “word or speech” and another is “widespread genre of the folklore”. In this article the history and the origin of the term proverb, the meaning of some proverbs, the usage of the proverbs in English and Uzbek literature are presented.

Key words: proverb, version, fable, qavvola, unifolklore event, folklore, epic poem, fabler.

ИСТОРИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПОСЛОВИЦ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Маматкулова Нигора Баходировна

Магистр 1-го курса Самаркандского государственного
института иностранных языков.

Научный руководитель: Очилова Ноила Фармоновна
электронная почта: nigora.mamatkulova.20@list.ru

АННОТАЦИЯ

Пословицы которые появились как специфическая и красивая модель художественной креативности являются одним из народных жанров у которых короткая форма, но глубокое значение. Термин “пословица” имеет 2 значения, первое “слово или речь”, и другое “широкораспространенный жанр фольклора”. В этой статье представлены история и происхождение термина “пословица”, значение некоторых пословиц, употребление пословиц в английской и узбекской литературе.

Ключевые слова: пословица, версия, басня, каувола, унифольклорное событие, фольклор, эпическая поэма, баснописец.

Insoniyat qaysi tilda muloqot qilishidan qat'i nazar xalq orasida zarbulmasal, matal, masal, naql, hikmatli so'z, foyda, hikmat, tanbeh, donolar yoki donishmandlar so'zi, mashoyixlar so'zi, oqinlar so'zi va otalar so'zi atamali bilan tilga olinadigan maqol janri namunalari nafaqat til boyligi, balki til ko'rki sifatida kishi nutqini bezab turadigan nihoyatda ommaviy umumfolklor hodisasi hisoblanadi.

Badiiy ijodiyotning o'ziga xos go'zal namunasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklor janrining ixcham tuzilish, ammo teran ma'no-mazmunga ega bo'lgan bir shaklidir. Maqollar - tilimiz ko'rkini, nutqimiz chiroyini, ongimiz va tafakkurimiz zehniyatini bir yuksak qudrat bilan namoyish eta oladigan, mehnatkash dunyo xalqlarining ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bir ko'zgidir. Ushbu badiiy tasvir vositasida turli millat vakillarining hayotga, atrof olamga, inson, jamiyat, oila va turmushga bo'lgan munosabatini, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, axloqiy va estetik qarashlarini, qisqa qilib aytganda, O'zi va O'zligini to'la namoyish eta oladigan chuqur falsafani ko'rish mumkin. Shu sababli ham maqollar xalqlar orasida nihoyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar osha insonlar va millatlararo nutqiy munosabatlarda, badiiy va tarixiy asarlarda, publitsistik adabiyotlarda muntazam ravishda qo'llanilib kelmoqda.

Ilmiy jihatdan qaralganda, maqol atamasi arabcha “qavvola” so'zidan olingan va “aytmoq, so'zlamok” ma'nolarini anglatadi. Xalq orasida “Qavlida sobit” yoki “Qavlida tuturuqsiz” iboralari bor: birinchisida “so'zida qat'iyatli, bir so'zli” ma'nolari

anglashilsa, ikkinchisida “so‘zida turmaydigan, o‘z so‘zi ustidan chiqa olmaydigan, so‘zi bilan ishi bir bo‘lmagan” ma‘nolari ifodalangan. Binobarin, “maqol” so‘zi o‘zbek tilida ikki ma‘noda, avvalo, o‘z lug‘aviy ma‘nosida – “so‘z, nutq”ni anglatga, ikkinchidan, istilohiy ma‘noda – folklorda keng tarqalgan janrni ifoda etadi [1].

Naql va masal janrlarining vujudga kelishiga katta ijobiy ta‘sirini ko‘rsatgan maqol janri naql va masalning umumiy xulosasi, qissadan chiqarilgan hissasiga aylanib ketganligi sababli ba‘zan naql, ba‘zan esa masal atamaları bilan qorishib ketgan. Shuning uchun ham tilshunoslikda maqol atamasining eng yaqin ekvivalentlari sifatida naql, masal atamaları keng ma‘nolarda qo‘llanilib kelmoqda.

Aslida “masal” so‘zi ham arabcha bo‘lib, “o‘xshamoq” ma‘nosini anglatga-da, o‘zbek tilida maqol va biror maqsadni izohlashga qaratilgan majoziy hikoya singari ikki ma‘noda qo‘llanadi. Biroq XX asrga kelib, uni maqol ma‘nosida istifoda etish bilan cheklanildi. Faqat tojik folklorshunosligida maqolni masal istilohi bilan atash qaror topdi. “Naql” so‘zi ham maqol ma‘nosida qo‘llansa-da, arabcha so‘z bo‘lib, “ko‘chirmoq” ma‘nosini anglatadi. O‘zbek tilida esa “bayon qilmoq, hikoya qilmoq, rivoyat qilmoq” singari ikkinchi bir ma‘noga ega va xalq og‘zaki nasrining mustaqil aforistik janrini ifodalovchi ilmiy istiloh sifatida qo‘llanadi. “Yaxshi naql-tomiri aql” maqolida “naql”-maqol ma‘nosidadir [1].

Yillar davomida maqollarning yangi variantlari yaratilib, eskilarining til sathidagi mazmun-mohiyati torayib yoki kengayib borgan, hattoki shu kabi maqollarning ma‘lum bir qismi muomaladan chiqib ketgan. Bunga sabab esa xalqlarning shunday ulkan boy merosi folkloristik jihatdan keyingi asrlargacha deyarli o‘rganilmay kelgani hamda bu boradagi izlanishlar va asarlar shu paytgacha yetarli emasligidir. Bu nuqtayi nazardan xalq maqollari o‘tgan asrlar tarixchilari va yozuvchilari e‘tiboridan chetda ekan, degan xulosaga kelish mutlaqo noto‘g‘ri bo‘ladi. Chunki qadim-qadimdan xalq og‘zaki va yozma ijodiyoti namunalari, xususan, ingliz va o‘zbek xalqining tarixi va turmush tarzidan hikoya qiluvchi doston va poemalarda maqollardan keng foydalanilgan.

Jumladan, VII-VIII asrlar ingliz adabiyotining yuksak namunasi bo‘lmish qahramonlik janrida yozilgan Beovulf epik poemasi buning yaqqol dalili bo‘la oladi. Chunki ushbu poemaning 30 dan ortiq qismida frazeologizmlar mavjud bo‘lib, ularni quyidagi 4 ta katta nom ostida birlashtirish mumkin:

- 1) The Rule of the God (Tangri qonuni)
- 2) Joy and Sorrow (Shodlik va qayg‘u)
- 3) Fate and Death (Qismat va o‘lim)
- 4) Warnings and Advice (Ogohlantirishlar va nasihatlar)

Bundan tashqari o‘rta asrlar ingliz adabiyotining yetuk romanlar yozuvchisi, bir-biridan qiziqarli qisqa hikoyalar muallifi Wilkie Collins(1824—1889) ham o‘z asarlarida maqollardan keng foydalangan. Xususan, yozuvchining ilk detektiv janrdagi

asarlaridan biri bo‘lgan “Moonstone” (Oysimon tosh) hamda ommani hayratga sola olgan “Woman in White”(Oq ko‘ylakli ayol) romanlarini misol qilib oladigan bo‘lsak, quyidagi keltirilgan ingliz maqollari asarda o‘z o‘rnida mahorat bilan ishlatilgan va badiiy jabhalar ko‘rkini yanada oshirishga xizmat qilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi:

A friend in need is a friend indeed (Do‘st og‘ir kunda bilinar)[2;9];

It's an ill bird that fouls its own nest (Yomon buzoq yopig‘in yer) [2;32];

Make hay while the sun shine (Temirni qizig‘ida bos) [3;18];

Tastes differ (Besh qo‘l barobar emas)[4;132];

When things are at come to the worst, they're sure to mend (Yomon kun yaxshi bo‘lar) [4;197];

You might as well whistle jigs to a milestone [4;332].

Nafaqat ingliz adabiyotida, balki o‘zbek adabiyotida ham maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta‘minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so‘z san‘atkorlarining diqqat markazida bo‘lgan. Jumladan, Go‘ro‘g‘li, Rustamxon, Kuntug‘mish, Ravshan dostonlari, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Nosiruddin Rabg‘uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg‘ozi Bahodirxon, Munis, Muhammadsharif Gulxaniy, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz O‘tar, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G‘afur G‘ulom va boshqa o‘nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o‘rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba‘zan aynan o‘zi, ba‘zan o‘zgargan holda mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.

Shunday maqollardan ayrimlari o‘zbek xalqining boy tarixi, mehnatkash hayot tarzi hamda go‘zal urf-odat va an‘analaridan hikoya qiluvchi Ravshan dostonida ishlatilgan. Quyida ushbu dostondan olingan parchalar keltirilgan:

...-E bolam Ravshanxon, muddaong Avazning qizi – Gulanor bo‘lsa, aslo g‘am yema! “Qizi borning nozi bor” degan, shunday-shunday deydi-da...[5;173];

...”Yolg‘iz bola yovdan yomon”, uzoqroq bozorga yuborgisi kelmaydi...[5;185];

...Nasihatim yod qilib ol, yolg‘izim,

Yolg‘iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot...[5;187];

...Men o‘lmasam, o‘z elimdan kechmayman!

Aziz boshing oyog‘imga teng emas...[5;346]

Maqollar haqida so‘z yuritganda, XVIII asr oxiri – XIX asrning boshlarida yashab ijod etgan turkiy xalqlarning buyuk masalnavis adibi va hassos shoiri Muhammadsharif Gulxaniyning mashhur “Zarbulmasal” asarini tilga olmaslikning sira iloji yo‘q. “Zarbulmasal” o‘z davri voqeligini badiiy ifoda etgan tanqidiy-hajviy yo‘nalishdagi asar bo‘lib, unda 400 ga yaqin maqol, matal, naql hamda 15 dan ortiq kata-kichik masal va hikoyatlar mavjud. Jumladan, ‘Maymun ila najjor’ masalidagi

“...Kissayi purzar¹ emish elga hunar,

Behunar elni o‘xiyur² xar³...”[1;55]

misralari yoki “Toshbaqa bilan chayon” masalidan olingan “...*Burung‘ilar masalidurki: “Yaxshiliq qil, suvg‘a sol, baliq bilur, baliq bilmasa, Xoliq bilur”*[1;59]; “...*Burung‘i yaxshilar “Eshak o‘yuni qirq yilda va yana it o‘yuni bor anda”, debdurlar...*”[1;59]; “...-*Ishonmagil do‘stingg‘a, samon tiqar po‘stingg‘a. “Oshnongdin tob” debdurlar...*”[1;60] kabi parchalardan ko‘rinib turganidek, adib asarda maqollardan naqadar mohirlik bilan nafis tarzda hamda o‘z o‘rinlarida foydalangan.

Shuningdek, XX asr o‘zbek adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri, shoir, yozuvchi G‘afur G‘ulom ijodini tahlil qilganimizda ham juda ko‘p maqollarni uchratishimiz mumkin. Xususan, adibning “Mening o‘g‘rigina bolam”, “Shum bola” asarlarida foydalanilgan maqollar asar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shishga, badiiy sahnalarning go‘zal talqinga ega bo‘lishiga, asar qahramonlari tasvirini boyitishga hamda asar obrazlilikini oshirishga xizmat qilgan vositalardan biridir. Misol uchun “Mening o‘g‘rigina bolam” asarini oladigan bo‘lsak, yozuvchi “*Turib yeganga turumtog‘ chidamas*”[2] maqoli orqali o‘sha davrda biror hunar yoki ishsiz ro‘zg‘or tebratishning naqadar og‘ir bo‘lganligini ta’sirli tarzda anglatgan bo‘lsa, kishilar ehtiyoji sira tugamasligi-yu ro‘zg‘orning “teshik to‘rva” ekanligini

“*Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv*”[2] maqoli vositasida juda chiroyli ifoda etgan.

Xulosa qilib aytganda, maqollar xalq aforistik tafakkurining kaliti bo‘lib,

¹purzar – bu yerda: pulga to‘la

²o‘xiyur – aytadilar, hisoblaydilar

³xar – eshak

hajman siqiq, mazmunan purhikmat, ommaviy va keng tarqalgan janrdir. Ularda kishilikning tabiat va jamiyatga munosabatining hamma qirralari axloqiy-falsafiy hukm tarzida baholangan. Maqollar xalqlarning asrlar davomida to‘plangan hayotiy tajribalarini zamonlar osha yetkazishda ma’naviy ko‘prik bo‘lib, avlodlarning bir-birlariga bog‘lanishlariga beminnat xizmat qilib kelmoqda.

Yuqoridagi kabi yana bir nechta asarlarni tahlil qilish davomida, maqollar nafaqat badiiy ijod namunalari qiymati hamda badiiyatini oshiruvchi ta’sirchan vosita, balki xalq hayoti, kechinmalari, orzu-umidlari, o‘y-fikrlari tasviri ekanligiga ham guvoh bo‘ldik. Shunday ekan, maqollar ma’no-mazmunini to‘la anglash va idrok etish uchun avvalo, o‘sha maqolni yaratgan xalqning tarixini, dunyoqarashini, urf-odatlarini, diniy aqidalarini, o‘sha xalq yashayotgan yurtning jug‘rofiy muhitini, hayvonlar va o‘simliklar dunyosi hamda iqlim sharoitlarini puxta o‘rganmoq lozim. Chunki har bir maqol o‘zicha mustaqil qomusiy asar bo‘lib, uning asosida kishilik yaratgan bilimlarga oid tushunchalar o‘zaro qorishib ketgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov S. va boshq. 6-sinf adabiyot darsligi. – Toshkent. Cho ‘lpon nashriyoti, 2013. 55-60-betlar;
2. Collins Wilkie. The Moonstone. - New York,2008.-9-32p;
3. Collins Wilkie. The Woman in White. - New York,2008. -18p;
4. Collins. Farmer S. The Moonstone. – Peterborough,1999.132-332p;
5. Mirzayev To‘ra. Kuntug‘mish. Ravshan. – Toshkent. Sharq nashriyoti,2011.173-346-betlar;

Internet manbalar:

1. <https://abiturtest.uz/mavzular/maqollar-hayotiy-tajriba-va-sinovlar-hosilasi/>
2. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/g-afur-g-ulom-1903-1966/g-afur-g-ulom-mening-o-g-rigina-bolam-hikoya>